

Bolalarni oziqlantirish xizmati

Liz Wellman, Bolalarni oziqlantirish va sog'lomlashtirish direktori

Hurmatli ota-ona/vasiy:

Bolalar ta'lim olishi uchun ularga sog'lom ovqatlar zarur. Sycamore har maktab kuni uchun sog'lom ovqatlarni taklif etadi. K-6 sinflarda nonushta narxi 1,55 dollarni, 7-12 sinflarda esa 1,80 dollarni tashkil etadi. Edwin H. Greene maktabida K-6 sinflar uchun odatiy tushlik 2,80 dollarni, super tushlik esa 3,05 dollarni tashkil etadi; Sycamore o'rta sinflar maktabida bu asosiy ovqatning turiga qarab 3,05 dollarni, 3,55 dollarni yoki 4,05 dollarni tashkil etadi; va Sycamore yuqori sinflar maktabida bu 3,05 dollarni, 3,55 dollarni yoki 4,05 dollarni tashkil etadi. Sizing bolangiz bepul yoki narxi arzonlashtirilgan ovqatlarni olish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Arzonlashtirilgan narxlardagi ovqatlarda nonushta 0,30 dollarni va tushlik 0,40 dollarni tashkil etadi, qanday ovqat turi tanlanishidan qat'iy nazar, faqat ularda patnisda talab etiladigan ovqat komponentlari bo'lishi kerak. *Barcha ovqatlar xarid bilan tanlanadigan meva yoki sabzavotni talab qiladi. Bu to'plam bepul va arzonlashtirilgan narxlardagi ovqatlar uchun qanday ariza taqdim etish kerakligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Quyida ushbu jarayonda sizga yordam beradigan ko'p uchraydigan bir qancha savollar va ularning javoblari berilgan.

1. Bepul yok arzonlashtirilgan ovqatlarni kimlar olishi mumkin?

- Qo'shimcha oziq-ovqat yordam dasturi (SNAP - Supplemental Nutrition Assistance Program) yoki Ogayo birinchi ishlaydi (OWF - Ohio Works First) dasturi doirasida moddiy yordam oladigan oilalarning barcha farzandlari bepul ovqatlar olishga haqlidirlar.
- Patronaj tarbiya tashkiloti yoki sudning qonuniy javobgarligi ostida bo'lgan tarbiya ostiga olingan bolalar bepul ovqatlar olishga haqlidirlar.
- O'z maktabida Ustunlikka ega bo'lish dasturida ishtirok etadigan bolalar bepul ovqatlar olishga haqlidirlar.
- Uysiz, qochoq yoki muhojir maqomiga ega bolalar bepul ovqatlar olishga haqlidirlar.
- Agar oilangiz daromadi Daromadlar darajasiga oid federal yo'riqlarda ko'rsatilgan limit doirasida bo'lsa, u oilaning bolalari bepul yoki arzonlashtirilgan ovqatlar olishi mumkin. Shuningdek, agar oilangiz daromadi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan limit darajasida yoki undan kam bo'lsa, bolalaringiz bepul yoki arzonlashtirilgan ovqatlar olishga haqli bo'lishi mumkin. Bolalarni oziqlantirish xizmati xodimlari tomonidan mazkur yordamni olishga haqli yoki haqli emaslik aniqlash uchun ariza taqdim eting.

Daromadlar darajasiga oid federal yo'riqlar (2024-25 o'quv yili uchun)			
Oila hajmi:	Yillik umumiy daromad:	Oylik umumiy daromad:	Haftalik umumiy daromad:
1	27 861 dollar	2 322 dollar	536 dollar
2	37 814	3 152	728
3	47 767	3 981	919
4	57 720	4 810	1 100
5	67 673	5 640	1 302
6	77 626	6 469	1 493
7	87 579	7 299	1 685
8	97 532	8 128	1 876
Har bir qo'shimcha odam uchun qo'shing:	9 953 dollar	830 dollar	192 dollar

2. **Bolalarim uysiz, muhojir yoki qochoq maqomiga ega yoki ega emasligini qanday bilaman?** Oilangiz a'zolari doimiy yashash manziliga ega emasmi? Siz boshpana, mehmonxona yoki boshqa vaqtinchalik turar-joyda yashayapsimi? Oilangiz mavsumga qarab yashash joyini o'zgartiradimi? O'z oldingi oilasini tark etib, siz bilan birga yashayotgan bolalar bormi? Oilangizdagi bolalar yuqorida aytilgan shartlarni qanoatlantiradi, deb o'ylasangiz va sizga bolalaringiz bepul ovqat olishi aytilmagan bo'lsa, 513-686-1700 raqamiga qo'ng'iroq qiling va yashash vaziyatingiz haqida Mark Zimmerly bilan suhbatlashing.

3. **Har bir bola uchun ariza formasini to'ldirishim zarurmi?** Yo'q. Oiladagi barcha bolalar uchun bitta ariza formasini to'ldirish kifoya. To'liq to'ldirilgan arizalarni qabul qila olmaymiz, shu bois barcha talab qilingan ma'lumotlar kiritilganligiga ishonch hosil qiling. To'ldirilgan ariza formasini Bolalarni oziqlantirish markaziga yoki bolaning maktabiga taqdim eting.

4. **Internet orqali ariza taqdim etsam bo'ladimi?** Ha! Biz Internet orqali ariza taqdim etishlarini ko'proq yoqlaymiz, zero bunda bolaning ushbu moddiy yordami olishga haqli yoki haqli emasligi darhol ma'lum bo'ladi.

- **Internet orqali ariza qanday taqdim etiladi: Ushbu URL manzilni kiriting - <https://www.payschoolscentral.com/>**
 - Foydalanuvchi nomi va parol yaratishingizni, agar hali biron birini yo'qotgan bo'lsangiz va kiring. Agar oldinroq foydalanuvchi nomi va parol yaratgan bo'lsangiz, mavjud ma'lumotlaringiz bilan kiring.
 - Bu bosqichni yakunlab bo'lgach, faqat birgina ovqatga ariza formasini to'ldirish imkoniga ega bo'lasiz.
- **Chop etish mumkin bo'lgan ariza formasini okrug veb-saytidan ham topishingiz mumkin: www.sycamoreschools.org – "Xizmatlar"** (Services) varag'iga kiring, Bolalarni oziqlantirish (Child Nutrition) yozuvini bosing. Agar qog'ozga chop etilgan formadan foydalansangiz, arizani to'ldirib bo'lgach, uni maktabga yoki 5959 Hagewa Dr., Cincinnati, Ohio 45242 manzilida joylashgan Okrug boshqarmasining Bolalarni oziqlantirish xizmatlariga (Child Nutrition Services) taqdim eting.

5. **Agar ushbu o'quv yilida men bolalarim bepul ovqatlar olishga haqli ekanligiga tasdiqlanganligi haqidagi xatni olgan bo'lsa, shunda ham ariza to'ldirishim lozimmi?** Yo'q, ammo olgan xatingizni diqqat bilan o'qib chiqing va yo'riqlarni bajaring. Agar oilangizdagi biror bola ushbu yordamni olishga haqliik haqidagi bildirishnoma olmay qolgan bo'lsa, darhol 513-686-1796 raqamlari orqali Bolalarni oziqlantirish xizmatlari bilan bog'laning. Shuningdek, to'lovlardan ozod etilganlik haqida ma'lumot taqdim etishingiz so'ralishi ham mumkin.

6. **O'tgan yili farzandim arizasi ma'qullangan edi. Yangi forma to'ldirib taqdim etishim zarurmi?** Ha. Arizalar faqat bir o'quv yili va keyingi yilning dastlabki bir necha kunlari uchun amal qiladi. Agar maktab sizga farzandingiz yangi o'quv yilida ushbu moddiy yordamni olishga haqli ekani haqida aytmagan bo'lsa, siz yangi ariza formasini jo'natishingiz kerak. Agar maktab tasdiqlagan yangi ariza formasini jo'natmasangiz yoki bolangiz bepul ovqatlar olish huquqiga egaligi haqida xizga xabar qilinmagan bo'lsa, sentyabr oyi oxiriga yaqin qisqa muddatli uzaytirish davridan keyin bolangiz ovqatlar uchun to'liq miqdorda haq to'laydi.

7. **Men WIC (ayollar, go'daklar va bolalar uchun moddiy yordam) olaman. Bolam (bolalarim) bepul ovqatlar olishi mumkinmi?** Olishga haqli yoki haqli emasligini ko'rish uchun ariza formasini to'ldiring.

8. **Men taqdim etadigan ma'lumotlar tekshiriladimi?** Ha, biz sizdan yozma isbot so'rashimiz mumkin. Javob bera olmaslik ovqatlar bo'yicha moddiy yordam berilishining to'xtatilishiga olib kelishi mumkin.

9. **Agar hozirda bu moddiy yordamga haqli bo'lmasam, keyinroq yana ariza taqdim etsam bo'ladimi?** Ha, o'quv yilining istalgan vaqtida yoki oilangiz daromadi yoki hajmi o'zgarganda, ariza taqdim etishingiz mumkin.

10. **Arizam yuzaidan maktab chiqargan qarordan norozi bo'lsam, nima qilishim mumkin?** Avvalo sizga berilgan ma'lumot to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun Bolalarni oziqlantirish xizmatiga 686-1796 raqamlari orqali qo'ng'iroq qilishingiz lozim. Shuningdek, 686-1700 raqamiga qo'ng'iroq qilib yoki quyidagi manzilga maktab yo'llab okrug g'aznachisi Jenni Logan bilan aloqaga chiqib, undan eshituv tayin qilishni so'rashingiz mumkin: Jenni Logan, Okrug g'aznachisi, 5959 Hagewa Drive, Cincinnati, Ohio 45242.

11. **Oila a'zolarimdan biri AQSh fuqaro bo'lmasa, men ariza taqdim etishim mumkinmi?** Ha. Bu moddiy yordamni olish uchun siz yoki bolangiz (bolalaringiz) AQSh fuqarosi bo'lishi shart emas.

12. **Agar daromadim doim bir xil bo'lmasa, nima bo'ladi?** Unda odatda oladigan o'rtacha daromadingizni ko'rsating. Masalan, agar siz odatda har oyda 1 000 dollar olasiz, ammo o'tgan oyda bir necha kun ishga bormadingiz va shu bois 900 dollar oldingiz, bunday holatda daromadingizni har oy 1 000 dollar deb ko'rsating. Agar odatda ish vaqtdan tashqari mehnat uchun haq oladigan bo'lsangiz, buni ham ko'rsatib o'ting, ammo ish vaqtdan tashqari ishlash ba'zida bo'ladigan bo'lsa, buni ko'rsatib o'tirmang. Agar ishingizdan ayrilgan bo'lsangiz yoki ish soatlaringiz yoki ish haqingiz qisqargan bo'lsa, ayni dam oladigan daromadingizni ko'rsating,

13. **Agar ayrim oila a'zolari umuman daromad olmaydigan bo'lsa, nima qilish kerak?** Oila a'zolari biz arizada ko'rsatib o'tishni talab qiladigan ayrim daromad turlarini olmasligi mumkin yoki umuman daromad olmasliklari mumkin. Agar shunday bo'lsa, ko'rsatish kerak bo'lgan joyda 0 raqamini yozing. Ammo agar daromadni ko'rsatish kerak bo'lgan joy bo'sh qoldirilsa, daromad nolga teng deb hisoblanadi. Daromadni ko'rsatish kerak bo'lgan joylarni bo'sh qoldirayotganda e'tiborli bo'ling, zero biz shunday deb hisoblaymiz. Shuningdek, agar umuman daromad olmasa, oila a'zosi ism-sharifi o'ng tomonidagi "daromad yo'q" deb yozilgan katakchani ham belgilashingiz lozim.

14. **Biz harbiy sohadamiz. Biz o'z daromadimizni boshqacha ma'lum qilamizmi?** Sizning asosiy ish haqi va naqt pul bonuslaringiz daromad sifatida ko'rsatilishi kerak. Agar bazadan tashqari turar-joy, oziq-ovqat yoki kiyim kechak uchun pul qiymatidagi moddiy yordam olsangiz, buni ham daromad sifatida ko'rsatish shart. Ammp agar turar-joyingiz Harbiy turar-joylarni xususiy lashtirish dasturi doirasida bo'lsa, turar-joy uchun beriladigan moddiy yordamlarni daromad sifatida ko'rsatmang. Safarbarlik natijasida jang harakatlarida ishtirok etganlik uchun beriladigan har qanday qo'shimcha to'lovlarni ham daromadga kiritmang.

15. **Oila a'zolarim uchun ariza formasida yetarlicha joy bo'lmasa, nima qilishim kerak?** Internet orqali ariza taqdim eting! Yoki arizaga sig'magan oila a'zolaringizni alohida varaqqa ro'yxatini yozing va uni arizangizga ilova qiling. Shuningdek, qo'shimcha ilovadan foydalanishingiz va uni birlamchi arizaga ilova qilishingiz mumkin.

16. **Nega arizada mendan to'lovdan ozod etishga roziligim so'raladi?** Ogayo davlat maktablaridan bepul va arzonlashtirilgan ovqatlar olishga haqli bo'lgan bolalarni maktab yo'riq to'lovlaridan ozod etish talab etiladi. To'lovlardan ozod etilgan bolalar boshqa Sycamore dasturlariga ham haqli hisoblanadi, masalan, o'quv to'lovlari, darsdan tashqari mashg'ulotlari, yozgi maktab, to'liq kunli bog'cha va hokazo. Ushbu to'lovlardan ozod bo'lish uchun siz arizangiz holatining to'lovlardan ozod etuvchilarga ma'lum qilinishiga rozilik berishingiz kerak. Agar rozilik bermasangiz, bu to'lovlarni to'lashingizga to'g'ri keladi. Rozilik berish yoki bermaslik bolangizning (bolalaringizning) bepul yoki arzonlashtirilgan ovqatlar olishga haqli bo'lish yoki bo'lmasligiga ta'sir etmaydi.

17. **Mening oilam yanada ko'proq yordamga muhtoj. Men ariza berishim mumkin bo'lgan yana boshqa moddiy yordam dasturlari bormi?** SNAP yoki boshqa moddiy yordam dasturlariga ariza berish haqida ma'lumot olish uchun mahalliy yordam idorasiga murojaat qiling yoki 877-852-0010 raqamiga sim qoqing. Agar sizda boshqa savollar bo'lsa yoki qo'shimcha yordam kerak bo'lsa, 686-1796 raqami orqali Bolalarni oziqlantirish xizmatiga sim qoqing.

18. **Internet orqali ariza taqdim etish uchun menda kompyuter yo'q yoki ariza nusxasini chop etib olish uchun menda printer yo'q. Bepul va arzonlashtirilgan ovqatlar uchun ariza formasidan qanday olsam bo'ladi?** Okrug idorasi yoki bolangizning maktabiga kirib o'ting. Idora xodimlari sizga chop etilgan ariza nusxasini topib berishadi. Shuningdek, quyidagi Bolalarni oziqlantirish xizmati elektron pochta manziliga maktab yo'llashingiz zinneckerc@sycamoreschools.org mumkin va Xizmat xodimi sizga pochta orqali arizaning qog'oz nusxasini jo'natadi. Ammo shuni esda tutingki, bu ariza berish jarayonini biroz orqaga suradi, zero biz ariza to'ldirilmaguncha uni ko'rib chiqa olmaymiz.

Agar sizda boshqa savollar bo'lsa yoki arizani qo'lda yoki elektron shaklda to'ldirishda yordam kerak bo'lsa, dushanbadan jumagacha ertalab soat 8:00 dan 16:30 qadar Sycamore Bolalarni oziqlantirish xizmatiga 513-686-1796 raqamlari orqali murojaat qiling. **O'z** , **RD, LD - Bolalarni oziqlantirish va sog'lomlashtirish masalalari bo'yicha direktor**

ARIZA TAQDIM ETISHGA OID YO'RIQLAR

Oilangiz vaziyatiga maksimal mos keladigan kategoriyani tanlab oling va u yerda berilgan yo'riqlarni bajaring. Ushbu forma maqsadlari uchun "oila a'zosi" deyilganda siz bilan yashaydigan har qanday bola yoki kattalar tushuniladi. Agar sizda savollar bo'lsa, istalgan vaqt 513-686-1796 raqamlari orqali Bolalarni oziqlantirish xizmatiga murojaat qiling. Har o'quv yilida qog'ozda yoki elektron variantda yangi ariza taqdim etish kerak, jumladan, oilangizdagi har bir Sycamore o'quvchisi, shuningdek, oilangizning boshqa a'zolari ham. Agar taqdim etilmasa, o'quvchilar ovqatlar uchun to'liq haq to'laydilar. Ariza qabul qilingandan va tasdiqlangandan so'ng, o'sha sanadan boshlab ovqatlar bo'yicha moddiy yordam kuchga kiradi. Moddiy yordam kuchga kirgunga qadar to'planib qolgan ovqat uchun to'lovlardan o'quvchi ozod bo'lmaydi va buni to'lash ota-ona/vasiyning bo'ynida.

Agar siz ovqat dasturi yoki Sycamore jamoat maktablari sizga hali yangi bo'lsa, yuqori o'ng burchakdagi katakchani belgilagan holda buni ko'rsatib o'ting.

OVQATLAR UCHUN YOZMA ARIZA:

Sycamore jamoat maktablari hozirda bepul yoki arzonlashtirilgan ovqatlar uchun arizani elektron shaklda taqdim etishni taklif etmoqda. Internet orqali ariza taqdim etish uchun <https://www.payschoolscentral.com/> sahifasiga kiring va u yerda siz o'quvchining ovqatlar borasidagi maqomi haqida darhol javob olasiz. Ushbu arizani internet orqali to'ldirib taqdim etish uchun bizning kompyuterlarimizdan foydalanish maqsadida maktab okrugimiz idorasida joylashgan Bolalarni oziqlantirish xizmatiga bemalol tashrif buyurishingiz mumkin.

QO'SHIMCHA OZIQ-OVQATLAR UCHUN YORDAM DASTURI (SNAP, oldingi Food Stamp dasturi) doirasida yordam oladigan yoki OGAYO BIRINCHI ISHLAYDI (OWF) dasturi bo'yicha yordam oladiganlar, quyidagi yo'riqlarni bajaring:

Agar siz ovqat dasturi yoki Sycamore jamoat maktablari sizga hali yangi bo'lsa, yuqori o'ng burchakdagi katakchani belgilagan holda buni ko'rsatib o'ting.

- 1-qism:** Barcha oila a'zolaringiz ro'yxatini keltiring va har bir bolaning ism-sharifi va uning yoniga bolaning maktabi, nechinchi sinfda o'qishini ko'rsating.
- 2-qism:** SNAP yoki OWF bo'yicha yordam oladigan oilalar 7 ta raqamdan iborat ish raqamini ko'rsating.
- 3-qism:** Agar zarur bo'lsa, tegishli katakchani belgilang.
- 4-qism:** O'tkazib yuboring.
- 5-qism:** Arizangiz maqomi boshqa to'lovlardan ozod etishni ko'rib chiqishda foydalanilishiga rozilik berish yoki bermaslikni tanlang. Imzo cheking va sanani yozing.
- 6-qism:** Agar tanlasangiz, bu savolga javob bering.
- 7-qism:** Formaga imzo cheking (Bu holatda ijtimoiy sug'urta raqamingizning oxirgi to'rtta soni SHART EMAS). To'ldirilgan arizani bolangizning maktabiga yoki 5959 Hagewa Drive manzilida joylashgan Bolalarni oziqlantirish xizmatiga topshiring.

Agar Bolalarni oziqlantirish xizmatidan bu yili bevosita sertifikatlanganlik haqidagi xatni olgan bo'lsangiz, bu arizani taqdim etishingiz shart emas.

SNAP yoki OWF bo'yicha yordam oladigan a'zosi bo'lmagan, ammo UYSIZ, MUHOJIR YOKI QOCHOQ bo'lgan bolasi bor bo'lgan oilalar, quyidagi yo'riqlarni bajaring:

- 1-qism:** Barcha oila a'zolaringiz ro'yxatini keltiring va har bir bolaning ism-sharifi va uning yoniga bolaning maktabi, nechinchi sinfda o'qishini ko'rsating. Siz bilan yashaydigan bola yoki katta yoshli bo'lgan oila a'zosi.
- 2-qism:** Bu qismni o'tkazib yuboring.
- 3-qism:** Agar biror bola uysiz, muhojir yoki qochoq maqomini olish uchun murojaat qilayotgan bo'lsa, tegishli katakchani belgilang va 513-686-1700 raqami orqali uysiz, muhojir yoki qochoqlar masalalari bo'yicha muvofiqashtiruvchi, Mark Zimmerly ga qo'ng'iroq qiling.
- 4-qism:** Agar bola 3-qismda nazarda tutilgan holat bo'yicha haqli bo'lmasagina, bu qismni to'ldiring. Boshqa barcha oilalar uchun yo'riqqa qarang.
- 5-qism:** Arizangiz maqomi boshqa to'lovlardan ozod etishni ko'rib chiqishda foydalanilishiga rozilik berish yoki bermaslikni tanlang. Imzo cheking va sanani yozing.
- 6-qism:** Agar tanlasangiz, bu savolga javob bering.
- 7-qism:** Formaga imzo cheking. Formaga imzo cheking. Ijtimoiy sug'urta raqamingizning oxirgi to'rtta sonini yozing (agar 4-qismni to'ldirish sizga zarur bo'lmasa, mazkur oxirgi to'rtta sonni yozish shart emas). To'ldirilgan arizani bolangizning maktabiga yoki Maktab okrugi idorasida joylashgan Bolalarni oziqlantirish xizmatiga topshiring.

Agar oiladagi barcha bolalar PATRONAJ TARBIYAGA OLINGAN BOLALAR bo'lsa, quyidagi yo'riqlarni bajaring:

- 1-qism:** Barcha oila a'zolaringiz ro'yxatini keltiring va har bir bolaning ism-sharifi va uning yoniga bolaning maktabi, nechinchi sinfda o'qishini ko'rsating. Agar bola patronaj tarbiyaga olingan bo'lsa, bu katakchani belgilang.
- 2-qism:** Bu qismni o'tkazib yuboring.
- 3-qism:** Bu qismni o'tkazib yuboring.
- 4-qism:** Bu qismni o'tkazib yuboring.
- 5-qism:** Arizangiz maqomi boshqa to'lovlardan ozod etishni ko'rib chiqishda foydalanilishiga rozilik berish yoki bermaslikni tanlang. Imzo cheking va sanani yozing.
- 6-qism:** Agar tanlasangiz, bu savolga javob bering.
- 7-qism:** Formaga imzo cheking. Ijtimoiy sug'urta raqamingizning oxirgi to'rtta sonini yozing (agar 4-qismni to'ldirish sizga zarur bo'lmasa, mazkur oxirgi to'rtta sonni yozish shart emas). To'ldirilgan arizani bolangizning maktabiga yoki Maktab okrugi idorasida joylashgan Bolalarni oziqlantirish xizmatiga topshiring.

Agar oiladagi ayrim bolalar PATRONAJ TARBIYAGA OLINGAN BOLALAR bo'lsa, quyidagi yo'riqlarni bajaring:

- 1-qism:** Barcha oila a'zolaringiz ro'yxatini keltiring va har bir bolaning ism-sharifi va uning yoniga bolaning maktabi, nechinchi sinfda o'qishini ko'rsating. Daromad olmaydigan har qanday shaxs uchun, jumladan, bolalar uchun ham "Daromad yo'q" katalchasini belgilashingiz shart. Agar bola patronaj tarbiya ostiga olingan bo'lsa, shu katakchani belgilang.
- 2-qism:** Agar oila 7 ta sonli SNAP yoki OWF ish raqamiga ega bo'lmasa, bu qismni o'tkazib yuboring.
- 3-qism:** Agar bolangiz 1-qismda nazarda tutilgan holatga haqli bo'lmasa, bu qismni to'ldiring.
- 4-qism:** Balog'at yoshidan o'tgan oila a'zosi bu formaga imzo qo'yishi kerak va ijtimoiy sug'urta raqamining oxirgi to'rtta sonini ko'rsatishi kerak (yoki agar unda ijtimoiy sug'urta raqami bo'lmasa, shu katakchani belgilang)
- 5-qism:** Arizangiz maqomi boshqa to'lovlardan ozod etishni ko'rib chiqishda foydalanilishiga rozilik berish yoki bermaslikni tanlang. Imzo cheking va sanani yozing.
- 6-qism:** Agar tanlasangiz, bu savolga javob bering.
- 7-qism:** Formaga imzo cheking. Ijtimoiy sug'urta raqamingizning oxirgi to'rtta sonini yozing yoki agar unda ijtimoiy sug'urta raqami bo'lmasa, katakchani belgilang. To'ldirilgan arizani bolangizning maktabiga yoki 5959 Hageva Drive manzilida joylashgan Bolalarni oziqlantirish xizmatiga topshiring.

Agar yuqorida keltirilgan variantlarning hech biri sizga tegishli bo'lmasa, quyidagi yo'riqlarni bajaring:

****Agar siz ovqat dasturi yoki Sycamore jamoat maktablari sizga hali yangi bo'lsa, yuqori o'ng burchakdagi katakchani belgilagan holda buni ko'rsatib o'ting.****

1-qism: Barcha oila a'zolaringiz ro'yxatini keltiring va har bir bolaning ism-sharifi va uning yoniga bolaning maktabi, nechinchi sinfda o'qishini ko'rsating. Daromad olmaydigan har qanday shaxs uchun, jumladan, bolalar uchun ham "Daromad yo'q" katalchasini belgilashingiz shart.

2-3 - qism: Bu qismlarni o'tkazib yuboring.

4-qism: Shu oyndan yoki o'tgan oydan boshlab umumiy oilaviy daromadni ma'lum qilish uchun ushbu yo'riqlarni bajaring:

- **1-qism – Ism-sharif:** Daromad oladigan barcha oila a'zolari ism-sharifini ko'rsating
- **2- qism – Umumiy daromad va bu daromadni olish davriyligi:** 1-qismda keltirilgan oila a'zolarining har birining tegishli oyda topgan daromadi turini ko'rsating. Daromadni olish davriyligini ham bizga aytishingiz kerak— masalan, har haftada, har ikki haftada, oyida ikki marta yoki har oyda.

Daromadlar: Umumiy daromadni ko'rsating, qo'lingizga tekkanini emas. Umumiy daromad bu soliqlar va boshqa ushlanmalardan oldingi summadir. Buni ish haqi vedomostidan yoki ishxonangiz rahbaridan bilib olishingiz mumkin.

Ijtimoiy yordam, bolalar uchun yordam va alimentdan olingan daromad: Har bir a'zo olgan daromad summasini ko'rsating.

Pensiya nafaqalari, ijtimoiy sug'urta, qo'shimcha ijtimoiy daromad (SSI- Supplemental Security Income),

Veteranlar uchun nafaqalar va nogironlik nafaqalaridan olingan daromad: Har bir a'zo olgan daromad summasini ko'rsating.

Barcha boshqa turdagi daromadlar: Ishchilar uchun tovon, ishsizlik yoki ish tashlash nafaqalari, sizning oilangizda yashamaydigan insonlar tomonidan doimiy berib turiladigan moddiy yordam va boshqa turdagi daromadlar. WIC dasturi, Federal ta'lim doirasida olingan nafaqalar va joylashtiruvchi tashkilot tomonidan oilaga berilgan patronaj to'lovlarni bunga kiritmang. Agar siz yakka tartibdagi tadbirkor bo'lsangiz, "Ish faoliyatdan olingan daromadlar" bo'limida xarajatlardan keyingi qolgan daromadni ko'rsating. Bu sizning biznes, ferma yoki ijara mulkingiz uchun. Agar siz Harbiy uy-joyni xususiyashtirish dasturida bo'lsangiz yoki harbiy harakatlar ishtirok etganlik uchun beriladigan to'lovlarni olsangiz, bu nafaqalarni daromad sifatida ko'rsatmang.

5-qism: Arizangiz maqomi boshqa to'lovlardan ozod etishni ko'rib chiqishda foydalanilishiga rozilik berish yoki bermaslikni tanlang. Imzo cheking va sanani yozing.

6-qism: Agar tanlasangiz, bu savolga javob bering.

7-qism: Formaga imzo cheking. Ijtimoiy sug'urta raqamingizning oxirgi to'rtta sonini yozing yoki agar unda ijtimoiy sug'urta raqami bo'lmasa, katakchani belgilang. To'ldirilgan arizani bolangizning maktabiga yoki 5959 Hageva Drive manzilida joylashgan Bolalarni oziqlantirish xizmatiga topshiring.

2024-2025 DAROMAD DARAJALARI BO'YICHA FEDERAL YO'RIQLAR

Oila hajmi	Yillik maosh	Oylik	Haftalik
1	27 861 dollar	2 322 dollar	536 dollar
2	37 814	3 152	728
3	47 767	3 981	919
4	57 720	4 810	1 110
5	67 673	5 640	1 302
6	77 626	6 469	1 493
7	87 579	7 299	1 685
8	97 532	8 128	1 876
Qo'shimcha har bir kishi:	9 953 dollar	830 dollar	192 dollar

Shuningdek, agar oilangiz daromadi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan limit darajasida yoki undan kam bo'lsa, bolalaringiz bepul yoki arzonlashtirilgan ovqatlar olishga haqli bo'lishi mumkin.

Konfidensiallik to'g'risidagi qonun bayonoti: Bunda siz bizga taqdim etadigan ma'lumotlardan biz qanday foydalanishimiz tushuntiriladi

Richard B. Russell milliy maktab tushligi to'g'risidagi qonun ushbu arizada ko'rsatiladigan ma'lumotlarni talab qiladi. Bu ma'lumotlarni taqdim etishingiz majburiy emas, ammo agar siz bu ma'lumotlarni taqdim etmasangiz, biz bolangizning bepul yoki arzonlashtirilgan ovqatlar olishga haqli ekanligini tasdiqlay olmaymiz. Arizaga imzo qo'ygan balog'at yoshidan o'tgan oila a'zosining ijtimoiy sug'urta raqamining oxirgi to'rtta sonini ham kiritishingiz kerak. Patronaj tarbiya ostiga olingan bola nomidan ariza taqdim etayotganda yoki Qo'shimcha oziq-ovqat yordam dasturi (SNAP), Ogayo birinchi ishlaydi (OWF) ish raqami yoki bolangiz uchun boshqa identifikatorni ko'rsatib o'tganda yoki arizaga imzo qo'ygan balog'at yoshidan o'tgan shaxs ijtimoiy sug'urta raqamiga ega emasligini ko'rsatganda, ijtimoiy sug'urta raqami talab etilmaydi. Biz sizning ma'lumotlaringizdan bolangiz bepul yoki arzonlashtirilgan ovqatlar olishga haqli yoki haqli emasligini aniqlashda hamda tushlik va nonushta dasturlarini boshqarish va amalda qo'llashda foydalanamiz. Biz sizning shartlarni qanoatlantirishingizga oid ma'lumotlarni ta'lim, sog'liqni saqlash va oziq-ovqat dasturlariga bu dasturlar uchun ariza beruvchilarni baholash, moliyalashtirish yoki yordam miqdorini belgilashda yordam berish uchun, auditorlarga mazkur dasturlarni tekshirishi uchun, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga mazkur dasturlar bo'yicha qonunbuzarliklarni nazorat qilishda yordam berish uchun oshkor etishimiz MUMKIN.

Federal fuqarolik huquqlari to'g'risidagi qonun va AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligining fuqarolik huquqlariga oid me'yorlari va siyosatiga ko'ra, AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligi, uning agentliklari, idoralari va xodimlari, shuningdek, AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligi dasturlarida ishtirok etadigan yoki bu dasturlarni boshqaradigan muassasalarning AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan olib boriladigan yoki boshqariladigan har qanday dasturda yoki faoliyatda insonlar irqi, rangi, milliy kelib chiqishi, jinsi, nogironligi, yoshidan kelib chiqib diskriminatsiyaga qo'l urishi ta'qiqlanadi.

Dastur bo'yicha ma'lumot uchun boshqa muqobil muloqot vositalarini (Brayl shrifti, katta shriftda chop etish, audiotasma, Amerika imo-ishoralari tili va hokazo) talab etadigan nogiron shaxslar bu yordamni olish uchun murojaat qilgan Agentlikka (shtat darajasidagi yoki mahalliy) murojaat qilishlari lozim. Qulog'l og'ir yoki nutqida kamchiliklari bo'lgan shaxslar (800) 877-8339 raqami orqali Kommutatsiyalanadigan xabarlar xizmati orqali AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligiga murojaat qilishlari mumkin. Bundan tashqari, dastur haqida ma'lumotlarni ingliz tilidan boshqa tillarda ham olish mumkin.

Dastur doirasida diskriminatsiya holati haqida shikoyatnoma taqdim etish uchun AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligining Dastur bo'yicha diskriminatsiya holati haqida shikoyat formasini to'ldiring, bu formasni (AD-3027) internetda

http://www.ascr.usda.gov/complaint_filing_cust.html manzilidan va AQSh qishloq xo'jaligi vazirligining istalgan idorasidan topishingiz mumkin yoki Vazirlik manziliga maktub yo'llang va formada so'ralgan barcha ma'lumotlarni maktubda ko'rsating. Shikoyat formasini nusxasini olish uchun (866) 632-9992 raqamiga sim qoqing. To'ldirilgan formani yoki maktubingizni quyidagi manzil orqali taqdim eting:

Pochta: AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligi, Direktor, Fuqarolik huquqlari bo'yicha yordamchi kotib ofisi -

1400 Independence Avenue, SW; Washington, D.C. 20250-9410

Faks: (202) 690-7442; yoki

Email: program.intake@usda.gov

Bu muassasa hamma uchun teng imkoniyat taqdim etadigan tashkilotdir.

Tahrir. 6/3/2019



2024-25 yil uchun bepul va arzonlashtirilgan maktab ovqatlari uchun ariza

Har bir oila faqat bitta ariza to'ldirishi lozim va to'ldirilgan arizani bolaning maktabiga yoki Bolalarni oziqlantirish xizmatiga taqdim eting, manzil 5959 Hagewa Drive, Cincinnati, Ohio 45242.

Agar maktablar okrugi sizga yangi bo'lsa va/yoki siz hozirda bepul va arzonlashtirilgan ovqatlar olmayotgan bo'lsangiz, shu katakchani belgilang.

1-QISM. BARCHA OILA A'ZOLARI RO'YXATINI KELTIRING

BARCHA oila a'zolari ism-sharifi <i>Faqat Sycamore o'quvchilari emas, balki oilaning barcha a'zolarining (BOSMA harflarda aniq qilib yozing: Ismi, Otasining ismining bosh harfi, Familiyasi)</i>	Bolaning maktabi <i>Faqat Sycamore o'quvchilarga tegishli</i>	Bola nechinchi sinfda o'qiydi	Agar bola patronaj tarbiyaga olingan bo'lsa, bu katakchani belgilang <i>Ijtimoiy ta'minot agentligi yoki sudning qonuniy javobgarligi. Agar barchasi patronaj tarbiyadagi bolalar bo'lsa, buni o'tkazib yuborib, 5-qismga o'ting</i>	Daromad yo'q – Bu katakchani belgilash shart
			<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
			<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
			<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
			<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
			<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
			<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>

2-QISM. MODDIY YORDAMLAR

Agar oilaning biror a'zosi Qo'shimcha oziq-ovqat yordam dasturi (SNAP) yoki Ogayo birinchi ishlaydi (OWF) dasturi bo'yicha moddiy yordam olsa, 7 ta sonli ish raqamini taqdim eting va 5-qismga o'ting. **ISH RAQAMI:** _ _ _ _ _

3-QISM. ALOHIDA KUN KECHIRISH VAZIYATLARI

Agar bola uysiz, muhojir yoki qochoq maqomi uchun ariza berayotgan bo'lsa, tegishli katakchani belgilang va uysizlar, muhojirlar yoki qochoqlar masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Mark Zimmerly ga 513-686-1700 raqami orqali sim qoqing.

Muhojir Qochoq Uysiz

4-QISM. OILANING UMUMIY YALPI DAROMADI (USHLANMALARDAN OLDIN)

(Barcha daromadlarni faqat bir marta va uni oluvchi shaxs nomi yozilgan satrda ko'rsating. To'lov davriyligini ko'rsatish uchun tegishli katakchani belgilang.)

Har bir shaxs uchun ko'rsating	Ish faoliyatdan olingan daromadlar	Ish haqi davriyligi				Yordam dasturlaridan olingan daromadlar	To'lanish davriyligi				Nafaqalardan olingan daromadlar	To'lanish davriyligi				Boshqa barcha daromadlar	Olish davriyligi			
		Haftada	Har 2 haftada	Oyida ikki marta	Oylik		Haftada	Har 2 haftada	Oyida ikki marta	Oylik		Haftada	Har 2 haftada	Oyida ikki marta	Oylik		*Jami emas	Haftada	Har 2 haftada	Oyida ikki marta
<i>Faqat daromad oladigan oila a'zolarini ko'rsating</i>	Umumiy daromad (ushlanmalardan oldin)					Masalan: Ijtimoiy yordam, bolalarga ko'mak, aliment					Masalan: Pensiya, qarilik nafaqasi, SS, SSI, VA nafaqalari									
	\$	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	\$	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	\$	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	\$	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
	\$	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	\$	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	\$	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	\$	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
	\$	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	\$	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	\$	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	\$	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>

5-QISM. TO'LOVDAN OZOD ETISH – KATTALAR ROZILIGI (KATTA YOSHLI SHAXS IMZO CHEKSIN)

To'lovlardan ozod bo'lish uchun ota-onalar mazkur ariza maqomining to'lovdan ozod etuvchi shaxslarga oshkor etilishiga ruxsat berishi kerak. Ruxsat bermagan ota-onalar to'lovlarni o'zlari to'laydilar. Rozilik berish yoki bermaslik bepul yoki arzonlashtirilgan ovqatlarga haqilikka ta'sir etmaydi.

Ha, men bolamning (bolalarimning) quyida ko'rsatilgan to'lovlardan ozod bo'lishga haqli yoki haqli emasligini aniqlash uchun arizam maqomidan foydalanilishiga rozilik beraman.

Akademik to'lovlar Yozgi maktab To'liq kunlik bog'cha haqi Dasrdan tashqari mashg'ulotlar to'lovlari
 Binoga ko'maklashish dasturlari

Yo'q, men bolamning (bolalarimning) quyida ko'rsatilgan to'lovlardan ozod bo'lishga haqli yoki haqli emasligini aniqlash uchun arizam maqomidan foydalanilishiga rozilik bermayman.

Akademik to'lovlar Yozgi maktab To'liq kunlik bog'cha haqi Dasrdan tashqari mashg'ulotlar to'lovlari
 Binoga ko'maklashish dasturlari

IMZO: _____

SANA: _____

*Binolarga yordam dasturlari odatda "Holiday Baskets", "Blessings in a Backpack" va "Prom Tickets" kabi ota-onalar tashkilotlari tomonidan olib boriladi. Konfidensiallik amal qiladi va faqat tegishli maktab xodimigina yordam oluvchilar ism-sharifi va manzillarini biladi. To'lovlardan ozod etishga oid savollar bo'lsa, okrug g'aznachisining ofisiga murojaat qiling 513.686.1700.

6-QISM. BOLALARNING ETNIK VA IRQIY MANSUBLIGI (Ixtiyoriy)

Bitta etnik mansublikni tanlang:

- Ispan/Lotin
 Ispan emas/Lotin

Bir yoki bir nechtasini tanlang (etnik mansublikdan qat'iy nazar):

- Osiyolik Amerikalik hindu /Yerli alyaskalik Oq
 Yerli gavayilik yoki boshqa Tinch okeani oroli odami
 Qora tanli/Afro-amerikalik

7-QISM. IMZO VA IJTIMOY SUG'URTA RAQAMI (KATTA INSON IMZO QO'YISHI KERAK)

Agar 4-qism to'ldirilsa, ushbu formaga imzo chekuvchi katta yoshli shaxs o'z ijtimoiy sug'urta raqamining oxirgi to'rtta sonini ham ko'rsatishi kerak yoki "Menda ijtimoiy sug'urta raqami yo'q" katagini belgilashi kerak.

Shuni tasdiqlaymanki (va'da beramanki), ushbu arizada ko'rsatilgan barcha ma'lumotlar haqiqat va barcha daromadlar ma'lum qilindi. Men maktab men taqdim etgan ma'lumotlardan kelib chiqib Federal mablag'larni olishini yaxshi tushunaman. Men maktab xodimlar bu ma'lumotlarni tekshirishini yaxshi anglayman. Men atayin noto'g'ri ma'lumot taqdim etish bolamning oziq-ovqatlar bo'yicha yordamdan mahrum bo'lishiga va mening o'zim esa Shtat va federal qonunchiligiga ko'ra javobgarlikka tortilishimga olib kelishini yaxshi tushunaman.

Imzo: _____ Bosma harflarda ism-sharif: _____ Sana: _____

Manzil: _____ E-pochta: _____ Telefon: _____

Ijtimoiy sug'urta raqamining oxirgi to'rtta soni: ____ ____ ____ ____ Menda ijtimoiy sug'urta raqami yo'q

OFFICE USE ONLY- REV 6/3/19. Total Income: \$ _____ Per: Week (x52), Every 2 Weeks (x26) Twice A Month (x24) Month (x12) Year Household size: _____ Categorical Eligibility: _____ Free _____ Reduced _____ Denied _____ Reason: _____ Date Withdrawn: _____ DASL: _____ Determining Official's Initials: _____ Date: _____ Confirming Official's Initials: _____ Date: _____ Verifying Official's Signature: _____ Date: _____ **Verification Dates:** Notification: _____ 2nd Notice Sent: _____ Response: _____ **Verification Result:** No Change _____ Free to Reduced-Price _____ Free to Paid _____ Reduced-Price to Free _____ Reduced-Price to Paid _____ Results Sent: _____